INTERNET TARMOQLARNIG BOLA RUHIYATIGA IJOBIY VA SALBIY TA'SIRI

Mirzakarimova Muhayyo Bahtiyor qizi
Yangiyo'l shahar 9- maktab psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada zamonaviy ota-onalar va ularning farzand tarbiyasidagi kamchiliklari, hamda bolalarning internet tarmoqlari va kompyuter o'yinlariga qaramligining sabab va oqibatlari haqida keltirib o'tilgan
Kalit so'zlar: bola tarbiyasi, zamonaviy usul, internet tarmoqlari, o'ziga xoslik, zamonaviy, qobilyat, texnologik, ilm-fan, tafakkur, iqtidor, motivatsiya.

Bugun hayotimizning barcha javhalarida axborot-kommunikatsiya va kompyuter texnologiyalarining kirib kelgani hamda jadal rivojlanish yo'liga o'tgani jamyatimizga ham katta o'zgarishlar olib kirdi. Kompyuter haqiqatdan ham keng tarmoqli vazifalarni bajaradi: Radio va musiqa eshitish, filmlar ko'rish, matn terish, rasmli ob'ektlar va animatsiyalar yaratish, telefon va kalkulyator vazifasini bajarish, global tarmoqlarga ulanish, kompyuter o'yinlarini o'ynash va hakoza. Axborot va bilimlar doirasi tez sur'atlar bilan kengayib borayotgan hozirgi sharoitda barcha ma'lumotlarni faqat dars mashg'ulotlari paytida o'quvchilarga yetkazish qiyin. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, o'quvchilar mustaqil ravishda o'z ustida tinimsiz ishlasagina bilimlarni chuqur o'zlashtirishi mumkin bo'ladi. Shu sababli o'quvchilarning hayotida muhim o'ringa ega bo'lgan dars mashg'ulotlaridan bo'sh vaqtlarini to'g'ri tashkil etish, undan oqilona foydalanishda ularga yordam berish zazur. Barcha shakllardagi darsda va maktabdan tashqari ishlarining chuqur ichki mohiyati o'quvchilarning ijtimoiy foydali faoliyatga faol jalb qilish ularning tashabbusi va mustaqilligini rag'batlantirish, individual qiziqishlarini va qobiliyatlarini rivojlantirishdan ibortdir. O'quvchilarning o'qishdan tashqari ishlarga pedagogik rahbarlikning xususiyati ularga faqat dars mashg'ulotlarida emas, balki ijtimoiy tashkilotlar

orqali, sinfdan va maktabdan tashqari har xil tadbirlar orqali amalga oshadi. Bugungi kunda katta extiyojga aylanib borayotgan narsa bu internet tarmoqlaridan samarali va unumli foydalanishni yoshlar ongiga singdirish, va bunda ota-ona hamda maktab o'qituvchilari hamkorlikda bolalarni bo'sh vaqtlarini mazmunli tashkil qilishga faqatgina zarurat bo'lsagina telefondan foydalanishlari mumkinligini ta'kidlab bolalar ongiga singdirib borish kerak.Bugungi kunga kelib o'sib kelayotgan yosh avlodni eng yaqin do'sti bu.. ming afsuslar bo'lsinki telefon, gadjet, planshet va televizorlarga aylanib qolmoqda. To'g'ri biz bolalarga bu narsalardan foydalanishni ta'qiqlab qo'yolmaymiz, lekin undan to'g'ri foydalanishni o'rgatmog'imiz lozim. Yoshlar hozirda texnologik bilimlarini kattalardan ko'ra tez hamda samarali egallamoqda va aytish mumkunki, kompyuter texnologiyasi savodxonligi bo'yicha kattalardan ustunlik ham qilishadi. Ular ta'lim jarayoni va mashg'ulotlar vaqtida o'qtuvchi nazoratida internetdan asosan ilm-fan, madaniyat va sportga oid malumotlarni oladi, o'rganadi. Bular xursand bo'ladigan ijobiy holatlar. Darslardan chiqib dars vaqtida ololmagan biron bir qiziq malumot, video rolik va shu kabi axborotni hohlagan internet kafedan hech kimning nazoratisiz ham topishi uni yuklab olishi mumkin. Kompyuter o'yinlarining bazilari o'smirlar intelektining rivojlanishiga, qiyin sharoitlarda mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalrining shakllanishiga, mantiqiy fikirlashning oshishiga, ijodiy, ruhiy rivojlanishiga yordam beradi. Lekin hozirgi kunda jamiyatni kompyuterlashtirishning ijobiy tomonlari bilan birga bolalar va o'smirlarni kompyuter, internet va asosiysi kompyuter o'yinlariga haddan ortiq bog'lanib qolish holatlari hamkuzatilmoqda. Bolalar va o'smirlarda kompyuter o'yinlariga psixologik tobeylik ko'rinishiga o'tib ketmoqda. Kopyuter o'yinlariga tobe bo'lib qolgan o'smir real hayotdan, zerikishdan, yolg'izlikdan, hayot qiyinchiliklaridan qochish maqsadida kompyuter o'yinlariga murojaat qilishni boshlaydi."Psixologlarning ma'lumotlariga ko'ra, kompyuter o'yinlarini o'ynaydigan 10-15% insonlar ularga tobe bo'lib qolishar ekan. Tobelik asosida esa rohatlanishga nisbatan ehtiyoj yotadi. Mazkur tobelik har qanday yoshda paydo

bo’lishi mumkin, biroq u o’smirlarda o’ta ta’sirli bo’ladi. Mutaxassislar tobelikning bunday turini o’ziga xos “Emotsional narkomaniya”ga taaluqli deb hisoblashadi. Kompyuterga tobelik og’ishgan xulq-atvor turlaridan biri hisoblanadi va u o’zining emotsional ruhiy kayfiyatini o’zgartirish usuli yordamida kundalik tashvishlardan qochishga intilish holati bilan ifodalanadi. Bunday paytlarda bolaning psixikasi tormozlanadi, individual shaxsiy rivojlanishdan to’xtaydi. Internet tarmoqlari va turli xil virtual o’yinlarga tobelikni ortib ketishining asosiy sabablaridan biri bolalarning bo’sh vaqtlarini to’g’ri taqsimlanmasligi va ota-ona nazoratidan chetda qolib ketishi. Barcha tobiylik vositalari hattoki kompyuter o’yinlari ham ijobiy hissiyotlarni paydo qiladi (xursandchilik, baxtiyorlik, rohat, ruhiy va jismoniy yengillikni sezish) va salbiy hissiyotlarini (havotir, hafalik, aybdorlik hissi, o’zini yolg’iz his etish) bartaraf etadi. Bolalar kompyuterni bir necha marta o’ynagandan so’ng kompyuter qahromoni va undagi virtual olam, unung real hayotidagi qondirilmagan ehtiyojini qondirishga imkon berayotkanini tushunadilar. Bu kompyuter qahromonini hurmat qilishadi, uning fikirlariga qo’shilishadi, u kuchli, kuplab dushmanlari bir zumda yo’q qilib g’alaba qozona oladi. Bolalar uchun bu rolga kirish va o’zini “u” deb hisoblash yoqimlidir. Chunki ularning ko’pchiligi real hayotda o’zlarida bunday his-tuyg’uni his qilishlari qiyin.

Xulosa qilib aytganda bolalar hayotimizning mazmuni, eng muhim bo’lagi ekanini aytishdann charchamasligimiz kerak. Albatta kompyuter va internet orqali begona insonlar masofadan farzandimiz psixologiyasini bilib olayotganini bo’lsayu, nahotki biz ularni har kuni har soniya ko’rib, kuzatib yurgan, qo’lidan yetaklab katta qilayotkan ota-onasi bo’la turib ularning pok va beg’ubor qalblarini, orzu istaklarini va extiyojlarini anglay olmasak… degan savolni har birimiz o’zimizga berishimiz kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. A. Abdusamedov. Mustahkam oila ma’naviyati. Toshkent – 2011.
2. D.I.Ahmedova, G.U.Solihova. Sog’lom avlod asoslari. Toshkent-2007.
3. M.G.Davletshin va boshqalar. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya.Toshkent. TDPU .2004y.
4. E.G‘oziev.Umumiy psixologiya. Toshkent "O‘qituvchi" 2010 y.
5. M.G.Davletshin. Zamonaviy maktab o‘qituvchisi psixologiyasi. Toshkent. 1998

NOTO'LIQ OILALARDAGI BOLALARNI IJTIMOIYLASHUVINING PEDAGOGIK VA PSIXOLOGIK MUAMMOLARI VA UNING YECHIMLARI

Xasanova Nurinisa Xolturayevna
Toshkent viloyati Quyi Chirchiq tumani
Maktab maktabgacha ta’lim bo’limiga
qarashli 29-maktab psixologi

Annotatsiya: Ushbu maqolada to’liq va noto’liq oilalardagi farzand tarbiyasining o’ziga xos farqli va o’xshash tomonlari hamda kamchilik va afzalliklari haqida keltirib o‘tilgan

Kalit so‘zlar: biologik rivojlanish, ijtimoiylashuv, dunyoqarash, ijobiy xususiyatlar, tajriba, munosabatlar, mexr-muxabbat, individuallik, o’ziga xoslik, zamonaviy, iqtidor, e’tiqod.

O'tgan davr mobaynida mamlakatimizda o'sib borayotgan avlodni sog'lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta'lim-tarbiya jarayoniga samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta'limning samarali tizimini tashkil etish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Inson tug'ilgan kunidanoq jamiyatga kiradi. Unda o'sadi, rivojlanadi va ma’lum bir vaqtga yetib kelganda hayoti yakun topadi. Inson rivojlanishiga biologik va ijtimoiy omillar ta'sir ko'rsatadi. Shaxsning shakllanishiga ta’sir etuvchi asosiy ijtimoiy omil bu oiladir. Oilalar har biri o’ziga xos betakror bo’ladi.

Chunki har bir inson o’ziga xos takrorlanmas xususiyatga ega hisoblanadi. O’sib kelayotgan yosh avlod oila tarkibiga, oiladagi oila a’zolarining dunyoqarashi, tarbiyasi va umuman, o’zini tevarak-atrofdagi odamlarga bo’lgan munosabatiga qarab, inson olamga ijobiy yoki salbiy nazar bilan qaraydi, o’z qarashlarini shakllantiradi, atrofdagilar bilan munosabatlarini quradi. Axir, to'liq bo'lmagan oilalar va ota-onasi yoki nogiron bolalari bor oilalar bor. Bundan ko’rinib turibdiki, bu oilalardagi munosabatlar va tarbiya oddiy to'liq oiladagi tarbiyadan tubdan farq qiladi. Ko'p bolali oilalarda tarbiya ham boshqacha; ota-onalar o'rtasidagi nizolar tez-tez sodir bo'ladigan oilalarda; turli xil tarbiya uslublari bo'lgan oilalarda, ya'ni qancha oila, shaxsni tarbiyalash uchun juda ko'p imkoniyatlar. Qolaversa, inson o'z fikriga, o'z e'tiqodiga ega bo'lmasa, undan so'ralgan hamma narsaga bo'ysunsa, shaxsga aylanmasligi mumkin. Va bu holatda ham ko'p narsa oilaga bog'liq. Aynan oilada shaxs birinchi hayotiy tajribani oladi, birinchi kuzatishlarni qiladi va turli vaziyatlarda o'zini tutishni o'rganadi. Ota-onalarning bolaga o'rgatganlari aniq misollar bilan tasdiqlanishi juda muhim, shuning uchun u kattalarda nazariya amaliyotdan ajralmasligini ko'rishi mumkin, aks holda, u ota-onasining salbiy misollariga taqlid qila boshlaydi.Oilaning buzilishi ota-onalar va bolalar, ayniqsa, onalar va o'g'illar o'rtasidagi munosabatlarga salbiy ta'sir qiladi. Ota-onalarning o'zlari nomutanosiblikni boshdan kechirganligi sababli, ular odatda bolalarga hayotning o'sha paytda, ayniqsa, ularning sevgisi va yordamiga muhtoj bo'lgan paytda paydo bo'lgan muammolarni yengishga yordam beradi. Bolaning ota-onasi bilan bo’lgan osoyishta va erkin munosabatining ijtimoiy ongiga, xulq-atvoriga, o’z-o’ziga bo’lgan ishonchining ortib borishiga ijobiy ta’sir etadi. To’liq oilada tarbiyalangan bola odatda oila va oila a’zolari to’g’risida kamroq tashvishlanadi, o’z oilasi to’g’risida kamroq tashvishlanadi. Izalanishlar shuni ko’rsatmoqdaki, noto’liq oilaning tarbiyaviy ta’siri ijobiy natija berishiga nisbatan ko’proq salbiy ta’sir qiladi. Oila an'anaviy ravishda asosiy ta'lim muassasasidir. Bola bolaligida oilada nimani qo'lga kiritsa, u keyingi hayoti davomida shu olgan bilim ko’nikma va malakalarni saqlab qoladi. Oilaning tarbiya instituti sifatidagi ahamiyati

shundan iboratki, bola hayotining muhim qismi unda bo'ladi va uning shaxsga ta'sir qilish muddati bo'yicha hech bir tarbiya institutini tenglasha olmaydi. Farzandlari yuqori, ammo ortiqcha baholanmagan o'z-o'zini hurmat qilish bilan o'sadigan oilalarda bolaning shaxsiyatiga (uning qiziqishlari, do'stlari bilan munosabatlari) e'tibor yetarli darajada talabchanlik bilan birlashtiriladi. Ota-onalik ilmi bor va tarbiya usulllarini yaxshi bilgan insonlar kamsituvchi jazolarga murojaat qilmaydilar va Bolani o’ziga bo’lgan ishonchini va samatsenkasini ochirish uchun bajonidil maqtashadi. O'zini past baholaydigan bolalar uyda ko'proq erkinlikdan foydalanadilar,lekin bu erkinlik, aslida, nazoratning yetishmasligi, ota-onalarning bolalarga va bir-biriga befarqligining natijasidir. Bolalarning mustaqilligi, asosan,kattalardan ozod bo'lish, ularning vasiyligidan, nazoratidan ozod qilish istagida ifodalanadi.

Ota-onalarga, ularning mehr va g'amxo'rligiga, ularning fikriga muhtoj bo'lib, ular mustaqil, huquqlarda ular bilan teng bo'lish istagini kuchli his qiladilar. Ikkala tomon uchun ham ushbu qiyindavrda munosabatlar qanday rivojlanishi, asosan, oilada shakllangan tarbiyauslubiga va otaonalarning qayta qurish qobiliyatiga – farzandining voyaga yetganlik tuyg'usini qabul qilishga bog'liq. Nisbatan xotirjam boshlang'ich maktab yoshidan keyin o'smirlik notinch va qiyin ko'rinadi. Va, ehtimol, o'smirning asosiy xususiyati shaxsiy beqarorlikdir.Muloqotdagi asosiy qiyinchiliklar, nizolar ota-onalarning xatti harakatlarini nazorat qilish, o'smirning o'qishi, do'st tanlashi va boshqalar tufayli yuzaga keladi. Bolaning rivojlanishi uchun eng noqulay bo'lgan ekstremal holatlar avtoritar tarbiya ostida qat'iy, to'liq nazorat va nazoratning deyarli yo'qligi, o'smirni o'z ixtiyoriga qo'yib, e'tiborsiz qoldirishdir.

Xulosa o’rnida “Avval g’ishtin qiyshiq qo’yarkan memor, osmonlarga yetsa ham qular u devor” xar biro ta-ona o’z farzandi oldidagi burch va vazifalarini o’z vaqtida sitqidildan bajarsa, kelajakda albatta o’zi xohlagandek yuksak marralarga erishadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yxati

1. K. Jo’raboyev, “O’quvchi yoshlarni kasb-hunarga yo’naltirish bo’yicha psixologik- pedagogik o’yinlar, mashqlar va metodikalar”.
2. O’zbekiston Respublikasida o’quvchi yoshlarni kasb-hunarga yo’naltirish tizimini rivojlantirish konsepsiyasi. Toshkent 2002 y.
3. E. G. G’oziyev Umumiy psixologiya. Toshkent. 2019 y 1-kitob.